

MATBUOT ANJUMANI O'TKAZILDI



MATBUOT ANJUMANI O'TKAZILDI

Bugun, Termiz shahar hokimi o'rinbosari Ashurov Kamol Musulmonqulovich ishtirokida matbuot anjumani o'tkazildi.

Mavzu: Ta'lim-tarbiya inson kapitalini rivojlantirishning muhim omili "Ta'lim tizimidagi islohotlar".

Matbuot anjumanida Termiz shahar hokimi o'rinbosari Kamol Ashurov shaharda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ishlar borasida so'z yuritdi.

Unda hokim o'rinbosari quyidagi fikrlarni bildirdi.

Bugungi kunda Termiz shahrida jami 115 ta maktabgacha ta'lim muassasalari, 28 ta davlat va 2 ta xususiy umumta'lim maktablari, 1 ta Prezident maktabi, 2 ta akademik litsey, 1 ta kasb-hunar maktabi, 2 ta ixtisoslashtirilgan san'at maktabi, 3 ta texnikum va 4 ta oliy ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Xozirgi kunda Termiz shahar xalq ta'limi bo'limiga qarashli 26 ta umumta'lim maktablari, viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi 2 ta maktab-internatida 34

ming 367 nafar o'quvchilar tahsil olib, ularga 2402 nafar pedagoglar ta'lim-tarbiya berib kelmoqda.

Ushbu o'quvchilarning barchasi to'liq onlayn shaklda ta'limga jalb qilingan.

Ta'limga qaratilayotgan e'tibor hamda oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining 9 foizdan 25 foizga oshirilishi natijasida 2020-2021 o'quv yilida umumta'lim maktablarini bitirgan 2 ming 585 nafar yoshlarning 773 nafari yoki 29,9 foizi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishiga erishildi. Shundan, 681 nafari O'zbekistondagi davlat oliy ta'lim muassasalariga, 24 nafari O'zbekistondagi va 68 nafari xorijiy oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilingan.

Shuningdek, 41 nafar bitiruvchilar kollej va texnikumlarga hujjat topshirib, jami 814 nafar yoki 31,5 foiz bitiruvchilar oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalariga qamrab olindi.

Bugungi kunda Termiz shahridan 2 nafar iqtidorli o'quvchilarimiz muddatidan avval oliy ta'lim talabasi bo'lish xuquqini qo'lga kiritib turibdi.

Jumladan, Termiz shahridagi 1-sonli yosh fizik va matematiklar maktab-internati o'quvchisi Shaymardanova Muxlisa avvalgi yil "Zulfiya" nomidagi davlat mukofotini olganligi uchun bu yil O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qish imkonini qo'lga kiritgan.

Termiz shahridagi 9-sonli maktabning 11-sinf o'quvchisi Xurramov Og'abek muddatidan avval Xitoyning Shanxay davlat elektr energiya universitetiga o'qishga qabul qilindi. U Shanghai University of Electric Power dan 10 ming 200 AQSh dollarlik grant ham yutib oldi.

Yangi "Farovon" massivida ko'p qavatli uylarning qurilishi va aholi sonining ko'payishi, shahardagi 6 ta (1,3,10,15,19,22-sonli) maktablarda o'quvchilarni qamrab olish ko'rsatkichi 2 va undan ortiq koeffitsientni tashkil etishi sababli shaharda yangi maktab qurishga ehtiyoj yuqori edi.

Mazkur muammoni hal qilish maqsadida Investitsiya dasturi asosida 18 mlrd 106 mln.so'm ajratilib, joriy yilda 1540 o'rinli yangi zamonaviy 26-sonli maktab binosining qurilishi xalqimizni quvonchiga cheksiz quvonch qo'shdi va shahardagi maktablarning quvvati 1,4 koeffitsientga tushishiga erishildi.

Bundan tashqari, Investitsiya dasturi asosida 25-sonli maktabga 3 mlrd 680 mln. so'm mablag' ajratilib, yangi qo'shimcha o'quv binosi qurildi.

Shaharda tashkil etilgan 2 ta xususiy maktablar ingliz tilini o'rgatishga ixtisoslashtirildi.

Bundan tashqari, joriy yilda moddiy-texnika bazasi jahon standartlariga mos bo'lgan 40 mlrd. so'mlik yangidan "Prezident maktabi" qurilib, foydalanishga topshirilishi ham yoshlarimizning kelajakda munosib kadrlar bo'lib yetishishiga muhim zamin yaratdi.

Shuningdek, yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida shaharda tizimli ishlarni amalga oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilanib, ta'lim muassasalarini zarur musiqa, san'at, sport, kompyuter jihozlari va kitoblar bilan ta'minlash uchun 434,0 mln. so'm mablag' ajratildi.

2022 yilda ham umumta'lim maktablaridagi ta'lim-tarbiya jarayoniga alohida e'tibor qaratilib, Termiz shahridagi "Barkamol avlod" bolalar maktabiga 150 o'rinli yangi bino qurilishi belgilab olingan. Shuningdek, "Temurbeklar maktabi" binosini rekonstruksiya qilish ishlari yakunlanib, hozirgi kunda foydalanishga topshirish uchun tegishli hujjatlari rasmiylash-tirilmoqda.

Termiz shahrida ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilib, 2 ta davlat (7- va 20-) umumiy o'rta ta'lim maktablari Yapon va Nemis tiliga ixtisoslashtirildi.

Bundan tashqari, 2021 yilda 16-sonli umumta'lim maktabi Axborot texnologiyalari faniga ixtisoslashtirilgan tayanch maktabiga aylantirildi.

Shu bilan birga, 2021 yilning aprely oyidan boshlab Termiz shahrida "Qurilish sohasiga malakali kadrlarni tayyorlash o'quv markazi" tashkil etilib, 2021 yilning 1 apreldan har 3 oyda 300 nafar (200 nafari yoshlar) xorijda ishlash istagi bo'lgan fuqarolarga qurilishning 14 ta yo'nalishi bo'yicha kasblarga o'rgatilib, chet tillariga o'qitilishi yo'lga qo'yildi.

Ta'lim sohasida xususiy sektorga yaratib bergan imkoniyatlardan foydalanib, hozirgi vaqtda tadbirkorlarimiz tomonidan birgina Termiz shahrida xususiy o'quv markazlari soni 50 tadan ortgan bo'lsa, ularning 20 tasi ingliz tilini, qolgan 30 tadan ortig'i aniq, tabiiy va gumanitar (matematika, fizika, biologiya, geografiya, tarix, onatili va adabiyot) fanlarini o'qitishga ixtisoslashgan.

Ingliz tilini o'qitishga ixtisoslashgan markazlardan birini misol keltirsam.

Shaharda nufuzli "Oksbridj" ingliz tilini o'qitishga ixtisoslashgan o'quv markazi bir necha yillardan buyon o'z faoliyatini samarali olib bormoqda.

Ushbu o'quv markazining rahbari (Erdanov Toshpo'lat) Termiz davlat universiteti Xorijiy tillar fakul'tetida bakalavr va Buyuk Britaniya davlatining poytaxti London shahrida magistratura yo'nalishlarini tamomlab, bugungi kunda yoshlarga ingliz tilini o'rgatib kelmoqda.

Markazning 1000 nafardan ortiq o'quvchilari bugungi kunga qadar AYLTS (IELTS) sertifikatlarini qo'lga kiritgan bo'lsa, 300 nafardan ortig'i chet ellarda tahsil olmoqda. Hozirgi kunda ushbu tadbirkorimiz tomonidan 200 o'rinli "Oksbridj" nomli yangi xususiy maktab binosini qurish ishlari olib borilmoqda.

Bundan tashqari, hozirgi vaqtda Termiz shahrida 2 ta ("Boysun- Barakat-Imkon" va "Zvezda Vostoka") xususiy maktab tashkil qilinib, ularda 281 nafar 1-9-sinf o'quvchilari ta'lim-tarbiya olmoqda. Quvonarlisi, ushbu xususiy maktabni tashkil etgan "Boysun-Barakat-Imkon" xususiy maktabi rahbari tomonidan 360 o'rinli xususiy yangi maktab binosi qurilmoqda.

Ta'lim-tarbiya inson kapitalini rivojlantirishning muhim omili ekanligini anglagan holda barcha ta'lim dargohlarida shahar hokimligi va mas'ul tashkilotlar hamkorligida ishlab chiqilgan yo'l xaritalari asosida ishlar muntazam tashkil etilmoqda. Shuningdek, Besh tashabbus doirasida "Sektor rahbari sovrini uchun" musobaqa va ko'rik tanlovlar

Image not found or type unknown

hmda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tizimli ravishda davom ettiriladi.

Matbuot injumanida ishtirokchilarni qiziqtirgan savollariga javob berildi.



Image not found or type unknown

